

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiliginini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari

Norbaeva Firuza O'ktamovna

Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiliginini takomillashtirishning muhim yo'nalishlarini o'rganib chiqadi, bunda muvofiqlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirish strategiyalariga e'tibor qaratiladi. Adabiyotlarni tahlil qilish va empirik tushunchalar orqali ushbu tadqiqot soliqqa tortish jarayonlarini soddalashtirish, xatarlarni kamaytirish, soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va amaliyotlarini aniqlaydi.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchi korxonalar, muvofiqlik, shaffoflik, samaradorlik, texnologiya, ma'lumotlar tahlili

Soliq ma'murchiligi fiskal boshqaruvning muhim tarkibiy qismi bo'lib, davlat xarajatlari uchun zarur bo'lgan daromadlarning to'planishini ta'minlaydi. Yirik soliq to'lovchi korxonalar o'zlarining barqaror iqtisodiy ildizlari tufayli mamlakat soliq tushumlarining katta qismini tashkil etadi. Biroq, ushbu sub'ektlar uchun soliqlarni boshqarish ularning murakkabligi, ko'lami va xilma-xil operatsiyalari tufayli turli muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada biz yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiligining turli jihatlarini ko'rib chiqamiz va takomillashtirish strategiyasini taklif qilamiz.

Ko'plab tadqiqotlarda yirik soliq to'lovchi korxonalar uchun soliq ma'murchiligidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o'rganib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarning aksariyatida olimlar qulay soliq muhitini yaratishda muvofiqlik, shaffoflik va samaradorlikning muhimligini ta'kidlaganlar. Avtomatlashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi texnologik yutuqlar soliq ma'murchiligi jarayonlarini takomillashtirish uchun muhim vosita sifatida paydo bo'lmoqda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bundan tashqari, soliq tizimini avtomatlashtirish soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirishda istiqbolli natijalarni ko'rsatdi.

Bu borada bosqichma-bosqich olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sezilarli darajada o'z samarasini ko'rsatmoqda. 2023 yildagi statistik raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tgan yilning olti oyida tekshirishlar 2022 yilning mos davriga nisbatan 40 foiz yoki 104 mingtadan 64 mingtaga kamaygan. Bu degani aksariyat tadbirkorlar to'g'ri ishslash "soyada" ishslashdan ko'ra afzal ekanini tushunib yetmoqda.

O'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko'payib, 490 mingga, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 mingga yetgan. Yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko'payib, 1,5 mingtani tashkil etgan.

Soliq ma'murchilagini tashkil etishda soliq to'lovchilarga berilgan yengilliklar, yaratilgan imkoniyatlar natijasida 2023yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetgan. Bu – 2017 yilga nisbatan 3 barobar ko'p demakdir. Shuningdek, 2021-2023 yillar davomida milliy korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini ham olib borilayotgan islohotlarning natiasi sifatida keltira olamiz.¹

Mamlakatimizda yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchilagini tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 apreldagi 320-son "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Unda yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining yirik soliq to'lovchilar faoliyatini tartibga solish masalalari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 18.08.2023 йилдаги мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулокот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутки.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko'rsatilgan va "joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat'iy nazar, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini amalga oshirish vazifasi yuklangan"²

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi tomonidan 2020-2023 yillar davomida xizmat ko'rsatilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zgarish dinamikasi



1-rasm. O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar toifalari kiruvchi korxonalar sonining dinamik o'zgarishi tahlili³

Soliq to'lovchilarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritish mezonlarini belgilash Davlat soliq qo'mitasi vakolatiga kiritilgan. Shu maqsadda, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 12 iyulda 3172-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi. Unda esa, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari belgilab berilgan.

Byudjet daromadlari ko'p jihatdan yirik soliq to'lovchi korxonalar iqtisodiy holatiga bog'liq bo'ladi va 2020-2023 yillar davomida ularning davlat byudjeti tushumlaridagi ulushini quyidagi jadvalda keltiramiz

Yirik soliq to'lovchilarning davlat byudjeti soliq tushumlarining

² "Йирик солик тўловчилар бўйича худудлараро давлат солик инспекцияси тўғрисида Низом".

³ Ўзбекистон Республикаси Давлат солик кўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shakllantirishdagi ulushi tahlili⁴ (foizda) 1-jadval

№	Ko‘rsatkichl ar	Yillar			
		202 0	202 1	202 2	202 3
1	Davlat byudjeti daromadlari (soliq tushumlari)	100,0	100,0	100,0	100,0
2	Davlat byudjeti soliq tushumlarida egri soliqlarning ulushi	32,8	31,9	34,2	32,6
3	Davlat byudjeti soliq tushumlarida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi	65,4	64,0	59,5	58,8
4	Jami egri soliqlar bo‘yicha soliq tushumida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi	57,8	61,6	57,1	59,9
5	Davlat byudjeti soliq tushumlarida to‘g‘ri soliqlarning	42,3	49,0	48,0	48,6

⁴ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

	ulushi					
6	Jami to‘g‘ri soliqlar bo‘yicha soliq tushumida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi		65,8	66,3	58,1	56,6
7	Davlat byudjeti soliq tushumlarida resurs soliqlarning ulushi		18,8	19,1	17,8	18,7
8	Jami resurs soliqlar bo‘yicha soliq tushumida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi tahlil qilinganda, quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Davlat byudjeti soliq tushumlarida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi tahlil qilinayotgan yillar davomida barqaror o‘sish yoki kamayish tendensiyasiga ega emasligini ko‘rishimiz mumkin. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan soliq tushumlari yillar kesimida qaraydigan bo‘lsak, 2020-yilda 65,4 foizdan 2023-yilga kelib 58,8 foizga kamayishini soliq to‘lovchilar sonining barqaror emasligi, hamda soliq qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlarga bog‘lash mumkin. Yirik soliq to‘lovchilarning davlat byudjeti soliqli daromadlar kesimidagi ulushida 2021-2022 yillar davomida uning fiskal xususiyati egri soliqlarga nisbatan to‘g‘ri soliqlar doirasidagi yuqori ahamiyat kasb etmagan bo‘lib, 2023-yilda egri soliqlarning ulushi to‘g‘ri soliqlarga nisbatan 3,3 foiz o‘sishi kuzatilmogda.	89,0	77,3	70,6	66,6	

Keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida tahlil qilinganda, quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Davlat byudjeti soliq tushumlarida yirik soliq to‘lovchilarning ulushi tahlil qilinayotgan yillar davomida barqaror o‘sish yoki kamayish tendensiyasiga ega emasligini ko‘rishimiz mumkin. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan soliq tushumlari yillar kesimida qaraydigan bo‘lsak, 2020-yilda 65,4 foizdan 2023-yilga kelib 58,8 foizga kamayishini soliq to‘lovchilar sonining barqaror emasligi, hamda soliq qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlarga bog‘lash mumkin. Yirik soliq to‘lovchilarning davlat byudjeti soliqli daromadlar kesimidagi ulushida 2021-2022 yillar davomida uning fiskal xususiyati egri soliqlarga nisbatan to‘g‘ri soliqlar doirasidagi yuqori ahamiyat kasb etmagan bo‘lib, 2023-yilda egri soliqlarning ulushi to‘g‘ri soliqlarga nisbatan 3,3 foiz o‘sishi kuzatilmogda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yirik soliq to'lovchilarning davlat byudjeti soliqli daromadlar kesimidagi ulushining soliq turlari guruhlari bo'yicha ahamiyatida resurs soliqlari hamda boshqa soliqlar guruhlari kesimidagi ulushida esa teskari holatni kuzatish mumkin. Jami resurs soliqlar bo'yicha soliq tushumida yirik soliq to'lovchilarning ulushi 2021-yilda 89 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil ko'rsatkichlariga ko'ra, ularning ulushi 66,6 foizni tashkil etgan. Buning asosiy sabablari sifatida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining yillar davomida pasaytirilishi bo'lib, vaholanki, bu soliq turi soliq to'lovchilarining aksariyati yirik soliq to'lovchilar maqomidagi soliq to'lovchilar sanaladi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, Respublikamizda davlat byudjeti daromadlarining fiskalligi yirik soliq to'lovchilarning iqtisodiy ahvoli, moliyaviy ko'rsatkichlari, rentabellik darajasi hamda soliq potensialiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiligini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

➤ Tavakkalchilikka asoslangan yondashuv: resurslarni yuqori xavfli hududlar va soliq to'lovchilarga qaratib, soliq ma'muriyatshiliga aniq tahlillarga asoslangan prognozlashtirishni amalga oshirish. Bu potentsial soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki nomuvofiqlikni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlili va bashoratli modellashtirishdan foydalanishni o'z ichiga oladi.

➤ Kengaytirilgan aloqa va ta'lim: soliq organlari va yirik soliq to'lovchilar o'rtasida ochiq aloqa kanallarini rivojlantirish. Soliq qonunlari va qoidalari bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish, shuningdek muvofiqlik talablari bo'yicha faol ta'lim berish.

➤ Soddallashtirilgan jarayonlar: soliq to'lovchilarga ham, soliq organlariga ham ma'muriy yuklarni kamaytirish uchun soliq qonunchiligiga rioxalish jarayonlarini soddallashtirish. Bunga soliq to'lash va to'lov tizimlarini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishini amalga oshirish va muntazam vazifalarni avtomatlashtirish kiradi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Salohiyatni oshirish: soliq xodimlarining texnik tajribasi va auditorlik ko'nikmalarini oshirish uchun o'qitish va rivojlantirish dasturlari boyicha mablag'lar ajratish. Bunga yirik soliq to'lovchi korxonalarga tegishli bo'lgan sohalarda ularning faoliyati va soliq xatarlarini yaxshiroq tushunish uchun maxsus o'qitish kiradi.
- Proaktiv Muvofiqlikni boshqarish: potentsial nomuvofiqlikni erta aniqlash va muammolarni zudlik bilan hal qilish uchun auditdan oldingi xavflarni baholash va soliq to'lovchilar faoliyatini doimiy monitoring qilish kabi proaktiv muvofiqlikni boshqarish strategiyasini amalga oshirish.
- Nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlari: soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtaсидаги kelishmovchiliklarni zudlik bilan hal qilish uchun nizolarni samarali va adolatli hal etish mexanizmlarini yaratish. Bu vositachilik, arbitraj yoki ixtisoslashgan soliq sudlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ushbu yo'nalishlarga e'tibor qaratish orqali soliq organlari yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiliginini kuchaytirishi, muvofiqlikni rag'batlantirishi va daromad yig'ishni samarali himoya qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, yirik soliq to'lovchi korxonalarda soliq ma'murchiliginini takomillashtirish texnologik innovatsiyalar, hamkorlik doiralari va institutsional islohotlarni birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Soliq organlari soliqqa tortishning rivojlanayotgan landshaftiga mos kelish uchun o'z tizimlari va imkoniyatlarini modernizatsiya qilishga sarmoya kiritishlari kerak. Bundan tashqari, muvofiqlik va shaffoflik madaniyatini tarbiyalash soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtaсида ishonchni mustahkamlash uchun juda muhimdir. Ushbu strategiyalarni qabul qilish orqali mamlakatlar soliq yig'ishni optimallashtirishi, iqtisodiy o'sishga yordam berishi va fiskal boshqaruvni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola yirik soliq to'lovchi korxonalarda samarali soliq ma'murchiligining ahamiyatini ta'kidlaydi va siyosatchilar, soliq organlari va biznes rahbarlari uchun soliq jarayonlarida muvofiqlik, shaffoflik va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

samaradorlikni oshirish uchun amaliy tushunchalarni beradi.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi 2013 yil 26 dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2019 yil 8 iyuldaggi 2019-45-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 12 iyulda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3172)
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.08.2023 yildagi mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi
6. Moliya: nazariy asoslar: O’quv qo’llanma / T.S.Malikov; –T.: "Iqtisod Moliya", 2021. – 434 bet.
7. Tilabov N.T. “Moliya” fanidan o’quv uslubiy qo’llanma. –T.: "IMPRESS MEDIA" MCHJ. 2022. 46 bet.
8. Tilabov N.T. Soliq siyosatini takomillashtirish - iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti sifatida. "Science and Education" Scientific Journal. 2022/5/ 1743-1757. www.openscience.uz
9. Tilabov N.T. Liberalization of tax policy - guarantee of ekonomic stability. "Science and Education" Scientific Journal. MAY 2021/VOLUME 2 ISSUE 5. 1097- 1112. www.openscience.uz
10. . Tilabov N.T. At the current stage, the budget is a tax policy and its distinctive features. FINANCE Materials of the international scientific and

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

practical conference May 20, 2021. ISBN 978-9943-13-999-7. 102-107 bet. ©
“IQTISOD-MOLIYA”, 2021 © TMI, 2021.

11. Tilabov N.T. O‘zbekistonda fiskal masalalar. “O‘zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Toshkent. TDIU. 2020 yil 10-11 dekabr. 352-356 bet. Toshkent. TDIU. 2020 yil.